

Yoshlar festivali doirasida “Yosh kitobxon” tanlovi o’tkazildi



Yoshlar festivali doirasida “Yosh kitobxon” tanlovi o’tkazildi

Surxondaryoda “Yangi O’zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida o’tkazilayotgan Yoshlar festivali doirasida bugun adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida “Yosh kitobxon” tanlovi o’tkazildi.

Tanlov uch yosh toifada ya’ni 10 yoshdan – 14 yoshgacha, 15 yoshdan -19 yoshgacha va 20 yoshdan – 30 yoshgacha bo’lganlar o’tasida tashkil etildi. Unda har bir hududdan 3 ta yosh toifasi bo'yicha bir nafardan, jami 45 nafar o'g'il-qiz ikkita shart bo'yicha bellashdilar.

Tanlov g’oliblariga tashkilotchilarning esdalik sovg’alari topshirildi.